

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMYI DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 RAQAMLI ILMYI KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**SAGATOV IBROHIM RAUFOVICH**

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA INTEGRATIV-MODULLI  
YONDASHUV ASOSIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(“Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani misolida)**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasining avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Sagatov Ibrohim Raufovich**

Professional ta'lim muassasalarida integrativ-modulli yondashuv asosida maxsus fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish ("Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fani misolida).....3

**Сагатов Иброхим Рауфович**

Совершенствование методики преподавания специальных предметов на основе интегративно-модульного подхода в профессиональных образовательных учреждениях (на примере специального предмета «Организация и управление фармацевтической работой»).....27

**Sagatov Ibrahim Raufovich**

Improving the methodology of teaching special subjects based on an integrative-modular approach in professional educational institutions (in the example of the special subject "Organization and management of pharmaceutical work").....55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**Of published works.....59**

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**SAGATOV IBROHIM RAUFOVICH**

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA INTEGRATIV-MODULLI  
YONDASHUV ASOSIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(“Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani misolida)**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped2136 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdunazarova Nargiza Fatxullaevna**  
pedagogika fanlar nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**To'raqulov Olim Xolbo'tayevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sharipova Dilyara Jumaniyazovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "22" 05 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "06" 05 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "06" 05 dagi 16 - raqamli reestr bayonnomasi).



**R.X.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

**S.Yu.Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

**X.Sh.Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda professional ta'lim jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish hamda professional ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlikning muhim qismi hisoblangan maxsus fanlarni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish masalasi faol o'rganilmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi eng ilg'or ta'lim markazlari (Center for Creative Leadership Courses, IEDP, MOOC, CPC)da "professional ta'limni rivojlantirish, xususan maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, faol ta'lim metodlarini qo'llash, ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish masalasi dolzarb muammo sifatida tadqiq etib kelinadi".<sup>1</sup> Bu professional ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda maxsus fanlarni o'qitish metodikasining ilmiy asoslarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga doir o'quv mashg'ulotlarni joriy etish, maxsus fanlarni o'qitishga kompetensiyaviy, integrativ-modulli, shaxsga yo'naltirilgan, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash, o'quvchilarning o'zlarini qiziqqan kasblarda o'z iqtidor va imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishlarini ta'limlash hamda mazkur jarayonda maxsus fanlarni o'qitish mazmuni yangilash, interfaol o'qitish shakllari va texnologiyalaridan samarali foydalanish kasbiy tayyorgarlik sifatini ta'minlovchi muhim omil sifatida tadqiqotlarning dolzarb maqsadiga aylangan.

Bugungi kunda respublikamizda zamonaviy talablar asosida professional ta'lim sifatini oshirish, jumladan, maxsus fanlarni o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini xalqaro talablar asosida yangilash kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mazkur islohotlarning mustahkam poydevoriga aylandi. Unga muvofiq, "O'zbekistonda Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini qamrab olgan professional o'qitish tizimi hamda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlari joriy etish"<sup>2</sup> dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. Bu borada professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayonlari samaradorligini oshirish, maxsus fanlarni o'qitish metodikasini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb

<sup>1</sup> Ainsworth, S., Prain, V., Tytler, R. (2011). Drawing to learn in science // Science 333 (6046), 1096-1097. DOI: 10.1126/science.1204153

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-4500926?ONDATE2=15.04.2022&action=compare>.

etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 26-fevraldagi 106-son “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda professional ta’limi tizimini takomillashtirishga N.F.Abdunazarova, O.A.Abdqudusov, N.Alimov, G.M.Anorqulova, S.Yu.Ashurova, L.V.Golish, R.X.Djuraev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, P.Z.Ishanov, K.J.Mirsaidov, N.N.Musayeva, N.A.Muslimov, M.M.Muxammedov, B.Nuridinov, Q.T.Olimov, D.Razzoqov, X.F.Rashidov, N.I.Taylakov, O‘.Q.Tolipov, O.To‘raqulov, D.M.Fayzullayeva, J.A.Hamidov, A.R.Xodjabayev, R.Q.Choriyev, Sh.S.Sharipov, A.A.Shoyusupova, B.B.Ergashev, M.B.O‘rozova, H.Sh.Qodirov, Sh.E.Qurbonov, F.X.G‘afforov va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitish va amaliy kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirish masalalari bo‘yicha O.A.Abdqudusov, G.M.Anorqulova, R.X.Djurayev, K.J.Mirsaidov, O‘.D.Xidirov, Ya.Haydarovlar va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Modulli o‘qitishning nazariyasi va amaliyotining rivojiga S.Yu.Ashurova, N.H.Avliyoqulov, M.G.Davletshin, N.N.Musayeva, B.Nuridinov, Q.T.Olimov, D.M.Fayzullayeva, A.A.Shoyusupovalar o‘z tadqiqotlarida katta hissa qo‘shganlar.

Shu bilan bir qatorda maxsus fanlarni o‘qitish muammolari mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari T.Yu.Astanova, N.V.Borodina, J.Keroll, E.B.Krull, M.V.Klerin, G.V.Lavrentev, Ye.I.Oxrimenko, N.K.Chapayev, M.A.Choshanov, D.V.Chernilevskiy, N.Ye.Erganova, P.A.Yusyavichene kabi pedagoglar tomonidan o‘rganilib, muammoning yechimiga oid ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. O‘qitishning faol metodlarining tasnifini ishlab chiqishga quyidagi tadqiqotchilar jiddiy ulush qo‘shdilar: Yu.S.Arutyunov, M.M.Birshteyn, V.N.Burkov, A.A.Verbiskiy, A.M.Novikov va boshq.

Dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini va o‘quv adabiyotlarining tahlili natijasi, professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitish metodikasini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish borasida

ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmaganligini ko'rsatdi. Bu esa, tadqiqot mavzusini professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish metodikasini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish masalasiga qaratishimizga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323 "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023–2025-yillar) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish metodikasini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

integrativ-modulli yondashuv asosida professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanini o'qitish mazmuni va tarkibiy elementlarini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni baholash metodikasini optimallashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodi va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda psixologik-pedagogik, o'quv-metodik manbalar tahlili; DTS, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini o'rganish va tahlil qilish; modellashtirish (loyihalash); pedagogik-ijtimoiy (kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test); pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni integrativ-modulli yondashuv asosida o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari maxsus fanlarni o'qitish mazmunini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, murakkab kasbiy ko'nikma va malakalarni iyerarxik tarzda o'zlashtirish tizimini ishlab chiqish, o'quvchilar o'zlashtirishini muntazam va tizimli nazorat qilishni ta'minlash hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish imkoniyatini yaratish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida "Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fanini o'qitish mazmuni va tarkibiy elementlari bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati asosida modul bloklarini ajratish, maxsus fanlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash hamda o'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning modulli texnologiyasi "Mehnat malakalari moduli" (MMM) Evropa konsepsiyasiga muvofiq "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar kasbiy faoliyatini tahlil qilish asosida o'qitish mazminini tanlab olish (mazmun darajasi) hamda individual traektoriyali blok-modulli o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish (texnologik daraja) asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni baholash metodikasi modul bloklari bo'yicha iyerarxik o'zlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish topshiriqlarini hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik daragasini belgilovchi malaka sinovlarini joriy etish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning tizimli metodik ta'minotini shakllantirishga doir metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

professional ta'lim muassasalarida "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha "Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fanini integrativ-modulli yondashuv asosida o'qitish bo'yicha uslubiy qo'llanma yaratilgan;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini baholash metodikasi ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlarida uning samarali ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarinnning ilmiy ahamiyati professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayonida integrativ modulli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning mohiyati va pedagogik imkoniyatlari aniqlanganligi, "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha talabalarni kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shakllanganlik darajasini baholash mezonlari hamda talabalarni maxsus fanlarni o'qitish jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati professional ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirishga qaratilgan "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirilgan maxsus fanlarning tizimli metodik ta'minoti ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Professional ta'lim muassasalarida integrativ-modulli yondashuv asosida maxsus fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni integrativ-modulli



yondashuv asosida o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari maxsus fanlarni o'qitish mazmunini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, murakkab kasbiy ko'nikma va malakalarni iyerarxik tarzda o'zlashtirish tizimini ishlab chiqish, o'quvchilar o'zlashtirishini muntazam va tizimli nazorat qilishni ta'minlash hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish imkoniyatini yaratish asosida takomillashtirishga oid takliflari respublikadagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha o'quv uslubiy ta'minotni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 iyundagi 4/17-6/1-son ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiya va takliflar professional ta'lim muassasalarida "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilgan;

professional ta'lim muassasalarida "Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fanini o'qitish mazmuni va tarkibiy elementlari bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati asosida modul bloklarini ajratish, maxsus fanlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va o'rgatuvchi modullarni ishlab chiqish asosida takomillashtirishga hamda professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning modulli texnologiyasini "Mehnat malakalari moduli" (MMM) Evropa konsepsiyasiga muvofiq takomillashtirishga oid takliflari respublikadagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida "Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" o'quv moduli mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 iyundagi 4/17-6/1-son ma'lumotnomasi). Mazkur o'quv moduli maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni baholash metodikasi modul bloklari bo'yicha iyerarxik o'zlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish topshiriqlarini hamda bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik daragasini belgilovchi malaka sinovlarini joriy etish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan respublikadagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni o'qitish natijalarini baholash va monitoring qilish jarayonida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 iyundagi 4/17-6/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'lim muassasalarida "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni o'qitish jarayonida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirish tizimi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 125 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni integrativ-modulli yondashuv asosida o'qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarini o'qitish pedagogik muammosi, professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitishning didaktik tamoyillari va talablari hamda maxsus fanlarini integrativ-modulli yondashuv asosida o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mehnat bozorining talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishni, professional ta'limni zamonaviylashtirishni talab etadi. Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalariga mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, keng ixtisosli, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlash jarayonini rivojlantirish uchun professional ta'limni modernizatsiyalash, tayyorlov yo'nalishlari kasb ta'lim standartlari, o'quv reja hamda dasturlarini takomillashtirish, samarali ta'lim texnologiyalarini amalga joriy etish, zarur moddiy-texnik va o'quv-uslubiy baza yaratish hamda ulardan unumli foydalanish, o'ziga xos o'quv-ilmiy majmualar va markazlar tashkil etish kabilarga asoslanish zarur. Professional ta'limda kadrlar tayyorlashda ularning bo'lg'usi kasbi va ixtisosligi bilan bevosita bog'liq o'quv predmetlarini o'qib-o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining bevosita kasbi va ixtisosligi asosini tashkil etuvchi o'quv predmetlari amaliyotda “maxsus fanlar”, “mutaxassislik fanlari”, “ixtisoslik fanlari” kabi ko'plab nomlar bilan ataladi. Lekin, ularni nomlashda to'liq bir to'xtamga kelinmaganligi shu bois ularning barcha jihatlarini yorituvchi yagona, yaxlit tushuncha mavjud emas. Shu o'rinda bitta tushuncha yoki iborada maxsus fanlarning barcha muhim jihatlarini to'liq ifodalashning iloji ham yo'qligini alohida ta'kidlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Maxsus fanlarning vazifasi tanlangan kasb va ixtisosliklar bo'yicha zarur va yetarli darajadagi bilim, xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishdir.

Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga oid izlanishlarimiz, ularning tarkibidagi mavzular orasidagi uzviylikni ta'minlashga, yaxlit ta'lim-tarbiya va rivojlantirish jarayonini tashkil etib o'tkazishga, tahsil

oluvchilarning o'zlashtirishlarini muntazam ravishda nazorat qilib ob'ektiv baholashga, bosqichma-bosqich aniq amaliy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi. Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'rganish jarayoni o'zining maqsadi va vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari, o'rganish o'рни (joyi), ajratilgan vaqt miqdoriga ko'ra umumilmiy hamda umumkasbiy o'quv predmetlaridan farq qiladi.

Maxsus fanlarni maqbul o'qitish deganda ayni payt va shart-sharoitda eng kam vaqt, zo'riqish kuchlari, mablag', material kabilar sarflab imkon qadar yuqori samara hamda sifatli natijaga erishishni tushuniladi.

Professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fanini loyihalash zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon beradigan asosiy didaktik tamoyillarga rioya qilishni talab qiladi.

Maxsus fanlar tarkibini tanlash va tuzishning ilmiy asosini didaktik tamoyillar tashkil etadi: insonparvarlik, izchillik, integratsiya, tabaqalashtirish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, ilmiy tabiat, kompyuterlashtirish, umumiy, politexnika va kasbiy ta'limning birligi va o'zaro bog'liqligi; professional harakatchanlik, professiologik shartlilik.

"Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish" maxsus fani bo'yicha ta'lim-tarbiya mazmunini tanlashda insonparvarlik tamoyilining amalga oshirilishi ularning gumanitar yo'nalishini kuchaytirishdan iboratdir.

Tarkibni tanlashda yetakchi dunyoqarashni, texnik g'oyalarni va qonuniyatlarni ochib berishdan tashqari, insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish ta'lim oluvchilarni, kelajakdagi kasbiy faoliyatning jarayonlari va hodisalarini tushunishga yordam beradigan faktlarni (treninglar, kelajakdagi kasbiy faoliyatni taqlid qiladigan vaziyatli va biznes o'yinlar) kiritishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida insonparvarlik tamoyilining amalga oshirilishini ta'minlaydigan maxsus fanning mazmunini tanlashga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan:

1. Kasbning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, zamonaviy aloqa vositalarini takomillashtirish sohasidagi yutuqlarni, olingan bilimlarni kelgusi kasbiy faoliyatda qo'llash istiqbollarini ochib beradigan o'quv materiallarini maxsus predmetlari tarkibiga kiritish.

2. Ta'lim mazmunining tarkibiy elementlarini sintez qilish asosida integratsiya, axborotlashtirish, ta'lim potensialini siqish tendensiyalari asosida kasbiy faoliyatning yangi turlarini va texnik va texnologik bilimlar sohalarini aniqlash.

3. Ta'lim oluvchilarning ishbilarmonlik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shadigan o'quv materiallarining maxsus fanlari mazmunida ushbu mehnat sohasidagi mutaxassislarning kasbiy vakolatlarining asosini aks ettirish.

4. Maxsus fanlar tarkibiga yangi integratsiyalashgan bilim sohalarini kiritish va ularni asosiy ishlab chiqarish funksiyalari va faoliyat turlari atrofida tizimlashtirish asosida professional bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyalashgan komplekslarini yaratish.

Tizimlilik tamoyili – maxsus o‘quv fanlari tarkibini tanlashda eng muhim tamoyillardan biri bo‘lib, u bizning tadqiqotlarimizda integratsiyalangan o‘quv fanini yaratishda bilimlarning mantiqiy sintezini ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshiriladi; o‘quv fanlari va sikllar tarkibidagi integrallashgan va tabaqalashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni birlashtirish; kasb ta‘limi butun o‘quv-ta‘lim jarayonining mazmuni va protsessual jihatlari birligi; ta‘lim jarayonining barcha elementlarining ierarxik aloqasini o‘rnatishga asoslangan o‘quv rejasi va dasturlarining tarkibiy qurilishi. Tizimlilik tamoyilini amalga oshiruvchi farmaesvtika yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fanlar tarkibini tanlashga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar: butun ishlab chiqarish jarayoni va kelajakdagi kasbiy faoliyat mazmunini yaxlit ko‘rishni ta‘minlash; kasbiy fanlar doirasidagi elementlar va ularning boshqa fanlar bilan aloqasi o‘rtasida ierarxiyani o‘rnatish; professional mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga yaxlit tasavvurni shakllantirish.

Integratsiya uslubiy va didaktik tamoyil sifatida ta‘lim jarayonining barcha qismlariga ta‘sir qiladi va tarkibni loyihalashning barcha darajalarida: umumiy tarkib modeli, o‘quv rejasi, o‘quv mavzusi va o‘quv materiallari darajasida amalga oshiriladi. Integratsiya tamoyilini amalga oshirish integrallashgan kasb bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj va mutaxassislarni tayyorlashda ustuvor serpredmetlilik o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bu ta‘lim oluvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati to‘g‘risida yaxlit tasavvurni yaratmaydi va olingan bilimlarni amalda qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Integratsiyalash tamoyilini maxsus fanlarning tarkibini loyihalashning barcha bosqichlarida amalga oshirish quyidagilarni amalga oshirishga imkon berdi:

a) ular umumiyligining ustunlik xususiyatini o‘rnatish asosida kasbiy ko‘nikma va malakalarning ierarxik guruhini yaratish;

b) fanlararo integratsiya bosqichida – kasbiy faoliyatning mazmunli parametrlari atrofida, o‘zlashtirishning har xil darajalarida taqdim etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni birlashtiruvchi komplekslarni asoslash va ishlab chiqish;

v) o‘qitishning mazmuni va tashkil etilishini integratsiyalash bosqichida, ichki sikllar va sikllararo aloqalarni amalga oshirishni ta‘minlaydigan nazariy va kasb ta‘limi darslarining tuzilishini ishlab chiqish.

Maqsadlarni belgilash tamoyili yakuniy (yoki oraliq) natijani bashorat qilish bilan chambarchas bog‘liq va loyihaning har bir bosqichida erishilgan yutuqlarni ob‘ektiv baholashga xizmat qiladi.

Maxsus fanlar mazmunini loyihalashda bashoratli tamoyilni amalga oshirish integrativ turdagi mutaxassisning innovatsion kompleks tasavvurini aks ettiruvchi va uni o‘qitish uchun mazmunga talablar tizimini belgilaydigan integratsiyalashgan kasb bo‘yicha mutaxassis faoliyatining ishlab chiqilgan professiologik modeliga asoslanadi.

Texnologiyalik tamoyili tafakkur jarayonlarining ma‘lum bir kasbiy faoliyat tuzulmasida mohoratli shaxsni shakllantirish mantig‘i bilan bog‘liqligini aniqlaydi va kasb ta‘limi tarkibini alohida bosqichlar, operatsiyalar va taomillarga ajratish, ularning belgilangan ketma-ketligini taqdim etishning modul tizimiga asosan

dasturiy amalga oshirishni loyihalashtirish jarayonini dekompozitsiya qilishni talab qiladi.

Pedagogik loyihalashtirishning eng muhim tamoyillaridan biri kasb ta'limining standartlashtirilishi jarayonlari, uning mazmuniga bo'lgan me'yorlar va talablarni belgilash, shuningdek kasbni o'zlashtirishning har bir bosqichida ta'lim jarayonini tashkil etishda bevosita aloqani ta'minlaydigan me'yoriy tartibga solish tamoyilidir.

“Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani bo'yicha ta'lim jarayonini loyihalashda me'yoriy tartibga solish tamoyili alohida ahamiyatga ega, chunki u kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarida o'z aksini topib, uni amalga oshirish uchun me'yoriy va tartibga soluvchi ko'rsatmalarning majburiy bajarilishi bilan tavsiflanadi.

Maxsus fanlar mazmunini loyihalashda ochiqlik tamoyili kasb ta'limining innovatsion sezgirligini aks ettiradi; iste'molchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari tahliliga qarab kasb ta'limi tarkibini diversifikatsiya qilish; kasbiy ta'limning mehnat bozori va ta'lim xizmatlari kon'yunkturasiga nisbatan tezkorligi va munosib darajada javob berishi; mijozlarni bilim, ko'nikma va malakalar sifati va integratsiyalashgan kasbga kiritilgan kasblar ko'lamidan qoniqtirish.

Maxsus fanlar tarkibini loyihalashda funksional to'liqlik tamoyili Farmatsevtika yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati professional modelining me'yoriy tarkibi hamda bo'lajak mohir mutaxassislarning bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni qayd etish bilan ta'minlanadi. Shunday qilib, o'zaro shartlilik, shuningdek, ko'rib chiqiladigan tamoyillarning farmasevt kasbiy faoliyatining professional modeliga mos keladigan kasbiy fanlar mazmunini loyihalashga nisbatan yo'naltirilishi, ularni yagona didaktik tizimga birlashtirish va kasbiy fanlar mazmuni bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirish, faoliyatning barcha turlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish funksiyalarini va ishlab chiqarish tarkibiy elementlarini tavsiflovchi birlashtirilgan kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning komplekslarini asoslash imkonini berdi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonini o'ziga xos tizim deb qarash, uni tashkil etuvchi komponentlari orasida funksional aloqadorlik mavjudligini e'tirof etishga imkon beradi. Maxsus fanlar mazmuni amaliy xarakterga ega bo'lib, bunda nisbatan ko'proq kasbiy xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish ko'zda tutiladi, shu bois shakllantirilishi ko'zda tutilgan bilimlar yetakchi vazifaga bo'ysundiriladi. Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tanqidiy tahlil qilish talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi qator omillarni aniqlashtirib olishga imkon berdi. Bular, ijtimoiy buyurtma, ta'lim muassasasining moddiy-texnik va metodik ta'minoti hamda o'quv jarayonini tashkil etish kabi omillardir.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan omillar maxsus fanlarni o'qitish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ta'sirni hisobga olgan holda pedagogik shart-sharoitlarni maxsus fanlarni samarali o'qitish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan maxsus fanlarni samarali o'qitishga imkon beruvchi

maqbul pedagogik shart-sharoitlarga biz quyidagilarni kiritamiz:

1) Maxsus fanlarning real amaliyot va yaqin istiqbolga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmunini shakllantirish;

2) O‘quv mashg‘ulotlarini moddiy-texnik, ilmiy-metodik va tashkiliy jihatidan ta‘minlash;

3) Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonining barcha asosiy bosqichlarida o‘qitishning noan‘anaviy shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, maxsus fanlar kasbiy tayyorgarlikning asosi hisoblanib, tizimli-integrativ yondashuv hamda unga mos o‘qitish, o‘rganish metodikasini talab etadi.

Bu jarayonda o‘zlashtirilgan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar amaliyotda qo‘llanilib sayqallanadi va kasbiy madaniyat darajasigacha takomillashtirilishi ko‘zda tutiladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Integrativ-modulli yondashuv asosida maxsus fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarida integrallashgan ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik jihatlari, maxsus fanlar mazmunini ishlab chiqishga integrativ-modulli yondashuv hamda professional ta‘lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishning integrativ-modulli texnologiyasi yoritib berilgan.

Professional ta‘limda tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ta‘limning mazmuni – bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvor xususiyatlari tizimi sifatida belgilanadi.

Professional ta‘lim tarkibi ishning mazmuni va xususiyatini, mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talablarni, fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishning va pedagogika fanini yutuqlarining hozirgi rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Shuning uchun tarkibni aniqlash uchun ilmiy ma‘lumotlarni tanlash tizimini ishlab chiqishda muhim rol ijtimoiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik-pedagogik omillarni tahlil qilish, integratsiyalashgan kasblar guruhini tashkil qilishning didaktik asoslari, bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimlashtirish ilmiy asoslarining o‘rni beqiyosdir.

Ta‘lim mazmuni faqat obyektli – bilim shaklida emas, balki amaliy masalalarni hal qilishga oid xatti-harakat usullari, faol kommunikativ jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarish munosabatlari va qonuniyatlarini tahlil qilish, amaliy-kasbiy faoliyatda nazariy bilimlarning qo‘llanilishi va h.k. tarzida faoliyatli shaklda ham ifodalanadi.

Barcha zarur shart-sharoit, imkoniyat, o‘qitish vositalari va yetarli darajada vaqt mavjud bo‘lgandagina mazkur mazmunni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ana shuning uchun ham, o‘z ichiga o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, metodikalar va o‘qitish texnologiyalari, xaritalar bilan birga bevosita o‘qitishning texnologik vositalari majmuini qamrab oluvchi kasb ta‘limi jarayonini tashkil etilib, o‘tkazish dolzarb hisoblanadi.

Ta‘limning sifatini ko‘tarish, uni bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari bilan bog‘lash faqat yuqori sifatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta‘minlaydigan o‘qitish

sifati yaxshilangan taqdiridagina mumkin bo‘ladi. Kasbiy ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu ta’limni insonparvarlashtirish, uzluksizliklashtirish, integratsiyalash, intensivlashtirish, standartlashtirish, individuallashtirish g‘oyalarini amalga oshirish hisoblanadi.

Integratsiya – har qanday qismlarni yaxlitlikka tiklash, to‘ldirish, birlashtirishdir. Ensiklopedik lug‘atda integratsiya quyidagicha tushuniladi: tizimning, umuman butun organizmning alohida differensiallashgan qismlari va funksiyalari, shuningdek, bunday holatga olib keladigan jarayonning bog‘liqlik holatini anglatuvchi tushuncha; differensiallashuv jarayoni bilan bir vaqtda sodir bo‘ladigan fanlarning yaqinlashuvi va aloqalari jarayoni.

Professional ta’lim tarkibini tuzishda, “integratsiyalashgan” deb nomlangan tutash tarkibiy tuzilmalarni ifodalaydigan tarkibiy qismlarning bloklarini yaratish g‘oyasi paydo bo‘ladi va amalga oshiriladi.

Integratsiya kasb ta’limining eng muhim tarkibiy qismi va natijasi – kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimida amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, birinchi integratsiya jarayonlari uni tashkil etishning barcha darajalarida umumiy va kasb ta’limi mazmunida: tanlash, o‘quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish, darsning o‘quv materialini tizimlashtirish, shuningdek uni o‘zlashtirish darajasida paydo bo‘ldi.

Shu munosabat bilan yangi integratsiyalashgan o‘quv fanlarining paydo bo‘lishi tendensiyasi kuchaymoqda. Shu bilan birga, fanlarning tendensiyalari va parchalanishi, yangilarining paydo bo‘lishi, o‘quv rejalari tarkibidagi sikl va kichik sikllarning yaratilishi susaymaydi, bu esa o‘quv jarayoni va ta’lim oluvchilarning ortiqcha yuklanishiga olib keladi. Bunday vaziyatdan chiqish faqat ilmiy fanlarni o‘quv fanlari darajasida integratsiyalash orqali mumkindir.

Shunday qilib, ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va malakalari maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida shakllantiriladi. Shu bois, yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib, quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak ekanligi belgilandi: “Farmatsiya” yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida maxsus fanlarni o‘qitishning o‘quv-uslubiy ta’minotini tahlil etish; maxsus fanlarni o‘qitish jarayonining tizimli metodik ta’minotini yaratish; maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida kasbiy ko‘nikma va malakalarni samarali shakllantirishini ta’minlovchi maqbul ta’lim mazmunini tanlash; maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini samarali shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish.

“Farmatsiya” yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani bo‘yicha egallashi lozim bilim, ko‘nikmalar tizimi tahlil qilindi.


Shunday qilib, ta’lim mazmuni ko‘p qirrali va ko‘p bosqichli tuzilishga ega. “Kimyo laboranti” kasbi uchun kasb ta’limi tarkibini tanlash va tuzish muammolarini hal qilish uni bitta kasb uchun emas, balki integratsiyalashgan kasblar guruhi uchun, buning ustiga har xil integratsiya darajalaridagi avvaldan turli kasblar guruhlarini nazarda tutgan integratsiyalashgan-differensiallashgan guruh uchun hal qilinishi zarurligi bilan murakkablashadi. Buning uchun biz o‘z

ishimizda tizimli yondashuv operatsiyalarini qo‘lladik (1-rasm).

Biz “Farmasevt” kasbining ular bajaradigan ishlarning xususiyatlaridan qat’iy nazar, barcha mutaxassisliklariga xos bo‘lgan, faoliyati mavjudligini aniqladik. Shunga muvofiq, biz professional faoliyatning, umumiy tarmoq, umumiy kasbiy va tez-tez kasbiy faoliyat parametrlarini aniqladik.

Integratsiyaning xususiy-kasbiy darajasi kasbning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qo‘shimcha parametrlar ko‘rinishida taqdim etilgan. Ta’lim oluvchiga ixtisoslikning har bir bosqichida umumiy va maxsus bilim va ko‘nikmalarni tanlashni o‘rgatish kerak.


Kasbiy xarakteristikalar avtonomiyaga ega bo‘lgan o‘ziga xos bloklardan iborat bo‘lib, ular “Farmasevt” kasbi mehnat funksiyalarining mushtarakligi, ishlatiladigan jihozlar, mehnat sharoitlari va uning tashkil etilishi bilan yaxlitlikka birlashtirilgan. Kasbning har bir bloki yoki integratsiya darajasining o‘ziga xos qo‘shimcha tizim yaratuvchi omili mavjud.



**1-rasm. “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani uchun ta’limi mazmunini tanlash va tuzishning tizimli yondashuv operatsiyalari**

Tadqiqot doirasida integrativ-modulli yondashuv asosida maxsus fanlarni o‘qitishning didaktik modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Bu tizimli faoliyat asosidagi integrativ modulli o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin: o‘qitish mazmuni, kasb faoliyatining tizimli tahlili asosida shakllantiriladi. Modulli dastur tarkibi kasbiy faoliyatga uyg‘un tarzda tuziladi. O‘qitish dasturi, alohida modullardan, modul bloklaridan, o‘quv elementlaridan iborat bo‘ladi.





**2-rasm. Integrativ-modulli yondashuv asosida maxsus fanlarni o'qitishning daktik modeli**

Modul bloki, o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, "boshlanishi va oxiri" kasb egasi ishi va harakatining aniq ko'rsatilgan tugallangan bo'lagidir. Har qaysi modul blokini o'rganish, "O'quv elementi" yoki "O'rgatuvchi modul" deb ataluvchi maxsus ishlangan turli uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Zururiyat tug'ilganda, har qaysi talaba uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. "O'quv elementi" (o'rgatuvchi modul) talabaga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkon beradi.

O'qituvchi va talabaning o'zaro munosabati teng huquqlilik va o'quv elementlari ("O'rgatuvchi modul") ni o'rganish jarayoniga o'zaro bog'liq holda kechadi. Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish o'z ichiga o'qitish mazmunini tanlab olishni (mazmun darajasi) va o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishni (texnologik daraja) oladi. Mazmun darajasida o'quv muassasasi sharoitida farmasevtlarini o'qitishning modul dasturi ishlab chiqiladi, texnologik darajada esa ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishning modul texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Modul dasturini ishlab chiqish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi: 1) "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar kasbiy faoliyatini tahlil qilish; 2) modul bloklarini ajratish; 3) modul bloklarini tahlil qilish; 4) o'quv elementlarini ishlab chiqish; 5) o'quv elementlarini o'rganish ketma-ketligini ishlab chiqish.

Birinchi bosqich "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatining tahlilidan iborat. Shu asosda "Farmatsiya" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarning faoliyat sohasini aniqladik.

Modul dasturini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida kimyo laboranti faoliyat sohasi bo'yicha o'qitishning modullarini va modul bloklarini quyidagicha ajratdik:

M-1 modul doirasida: dorixonani chizmasini chizish va maydonini hisoblash (MB 1.1); Buyurtma talabnomalarini qabul qilish (MB 1.2); beriladigan mollarni rasmiylashtirish (MB 1.3); retseptni qabul qilib, rasmiylashtirish (MB 1.4); farmasevtik deontologiya asoslarini har xil tashkiliy bosqichlarda o'rganib, blok-sxemasini taxlil qilish (MB 1.5); litsenziya olish uchun beriladigan hujjatlarni rasmiylashtirish (MB 1.6); shartnoma rasmiylashtirish (MB 1.7);

M-2 modul doirasida: dorixona ombori bo'limlarida mollarni qabul qilishni, saqlashni va ularning hisobini olib borish (MB 2.1); dorixona ombori "hisob varaqasi" ni rasmiylashtirish (MB 2.2); bo'limlardagi mollar harakatining hisobini olib borish (MB 2.3); dorixonalardan tahlil ushuni olinadigan dorilarni olish tartibi va ularni rasmiylashtirish (MB 2.4); dorixonaga kelib tushgan tibbiyot mollarni xisob daftariga kiritish (MB 2.5); yuk xati va boshqa kuzatuv hujjatlari bo'yicha tekshirib olish (MB 2.6); "Mol, moddiy boyliklar harakati"ni xujjatlarda rasmiylashtirish (MB 2.7); xaridorlar, hisobdor shaxslar bilan o'zaro xisob-kitob xujjatlarini tuzib, to'ldirish (MB 2.8).


M-3 modul doirasida: "Tovar, moddiy boyliklar xarakati"ni hujjatlarda rasmiylashtirish (MB 3.1); idishlarni, yordamchi materiallarni va boshqa moddiy boyliklarni harakati hisobi (MB 3.2); laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobi

(MB 3.3); “Pul mablag‘lari harakati”ga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish (MB 3.4); kassa ko‘rsatkichlariga dalolatnoma yozish (MB 3.5); tilxat yozib rasmiylashtirish (MB 3.6); inventarizatsiya ro‘yxatini to‘ldirish (MB 3.7); yig‘ma inventarizatsiya ro‘yxatini tuzish (MB 3.8).

M-4 modul doirasida: dalolatnomalarni yozib, rasmiylashtirish (MB 4.1); Inventarizatsiya yakunini aniqlashni hisobotni tuzish (MB 4.2); tovar hisobotini tuzish (MB 4.3); mehnat vaqti va ish haqini hisob qilish (MB 4.4); tovar aylanishiga reja tuzish (MB 4.5); daromad solig‘ini hisoblash (MB 4.6); mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, transport solig‘ini hisoblash (MB 4.7).

Shunday qilib, ta’kidlash mumkinki, “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fanini o‘qitishning modul dasturi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: faoliyat sohasi, modullar, modul bloklari (2-rasm).

“Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun mustaqil modul bloklarini ifodalovchi modul dasturi tizimli xossalarga ega bo‘lishi kerak, ya’ni elementlari o‘rtasida barqaror aloqa bo‘lishi, elementlarning ierarxikligiga, yaxlitligiga, bo‘linuvchanligiga ega bo‘lishi va alohida elementlar uchun xos bo‘lmagan, tizimning yangi xossalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi integrativ sifatlarga ega bo‘lishi kerak.



**3-rasm. “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fanini o‘qitishning modul dasturini tuzilmasi**

Shundan kelib chiqib, modul bloklarining ierarxiklik (oddiydan murakkabga tomon qoidasi bo‘yicha qurilgan) tizimini ishlab chiqdik.

Har bir modul bloki mantiqiy tugallanganlikka ega bo‘lgani va mustaqil hisoblangani munosabati bilan dasturni mazkur tadqiqot doirasida tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” o‘quv modulining uchta modul bloki ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning mazmuni “Farmatsiya” yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyatining invariantli asosini tashkil etadi. Ishlab chiqilgan modul bloklari tavsifi, ishlarning standartlari va zarur qurilmalar “Modul bloklari ro‘yxati va tavsifi” hujjatida keltirilgan.

Modul dasturini ishlab chiqishning uchinchi bosqichi doirasida biz modul bloklarining mazmunini tahlil qilib chiqdik. Shu asosida “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani tuzilmasini izchil ochib beruvchi ishlab chiqarish amallarini (ish qadamlarini) va ta’lim oluvchida bu amallarni muvaffaqiyatli o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan ko’nikma va malakalarni shakllantirish uchun o’quv elementlarini (o’rgatuvchi modullarni) ajratdik.

Modul dasturini ishlab chiqishning to’rtinchi bosqichi o’quv elementlarini (o’rgatuvchi modullarni) ishlab chiqish bo’lib, o’quv elementlari (o’rgatuvchi modullar) ta’lim oluvchigacha yetib boruvchi va ko’nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beruvchi metodikalardan iboratdir.

Modul dasturini ishlab chiqishning beshinchi bosqichida o’quv elementlarini o’rganish ketma-ketligini ishlab chiqdik. O’quv elementlarini o’rganish ketma-ketligini ishlab chiqishda “Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish” maxsus fani bo’yicha ma’lumotnoma jadvali asos bo’lib xizmat qiladi.

MMM – konsepsiyasiga muvofiq o’qitish dasturlari jadval ko’rinishida tuziladi. MMM-dasturi kichik mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati doirasida bajariladigan modul bloklarini va ularga tegishli barcha o’quv elementlarini (o’rgatuvchi modullarni) o’z ichiga oladi.

O’qitishning modul dasturi asos variantida barcha modul bloklarini va uning tarkibidagi barcha o’quv elementlarini o’z ichiga oladi. Ta’lim oluvchining tayyorgarlik darajasiga bog’liq holda modul dasturi individallashtiriladi, ya’ni ta’lim oluvchiga mazmuni ma’lum bo’lgan modul bloklar olib tashlanib, bu testdan o’tkazish natijalari bilan tasdiqlanadi yoki qo’shimcha modul bloklari, o’quv elementlari, yo’riqnoma xaritalar kiritiladi.

